

SITORAI MOHI XOSA – BUXORO AMIRLARINING YOZGI QARORGOH

Nurmuxammedov Mirvoxid Xamidulla o'g'li

Namangan davlat universiteti talabasi

E-mail:nurmuhammadovmirvohidjon@gmail.com

Tel:+998 (94) 392 42 62

Annotatsiya: Mazkur maqolada Sitorai Mohi-Xosa saroyining tarixiy shakllanish jarayoni, me'moriy tuzilishi, badiiy bezaklari hamda uning Buxoro amirligi davridagi siyosiy va madaniy hayotdagi o'rni yoritiladi. Saroyning turli davrlarda bosqichma-bosqich rivojlanishi, unda sharqona va yevropacha me'morchilik an'analarning uyg'unlashuvi hamda ustalar mahorati asosida yaratilgan noyob inshootlar tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada Sitorai Mohi-Xosaning bugungi kunda muzey va turistik maskan sifatidagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Unda saqlanayotgan tarixiy eksponatlar orqali Buxoro amirligi davri madaniyati, hunarmandchiligi va saroy hayoti haqida muhim ma'lumotlar beriladi. Saroyning O'zbekiston madaniy merosidagi o'rni va uni asrab-avaylash masalalariga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Kirish so'zlar: Amir Nasrulloxon, Amir Olimxon, Muso Saidjonov, Abulfayzxon, mang'it, mehmonxona, muzey, Eron me'morchiligi, oq zal, eksponat.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс исторического формирования дворца Ситорай Мохй-Хоса, его архитектурная структура, художественное оформление, а также его роль в политической и культурной жизни Бухарского эмирата. Анализируется поэтапное развитие дворца, сочетание восточных и европейских архитектурных традиций, а также уникальные сооружения, созданные на основе мастерства зодчих. Также в статье рассматривается значение Ситорай Мохй-Хоса как музея и туристического объекта в настоящее время. Через представленные исторические экспонаты раскрываются культура, ремесло и придворная жизнь эпохи Бухарского эмирата. Особое внимание уделяется роли дворца в культурном наследии Узбекистана и вопросам его сохранения.



Ключевые слова: Амир Насруллахан, Амир Олимхан, Муса Саиджонов, Абульфайзхан, династия Мангитов, гостевая зала, музей, иранская архитектура, Белый зал, экспонат.

Abstract: *This article examines the historical formation process of the Sitorai Mokhi-Khosa palace, its architectural structure, artistic decorations, and its role in the political and cultural life of the Bukhara Emirate. The gradual development of the palace in different historical periods is analyzed, highlighting the combination of Eastern and European architectural traditions as well as the unique structures created through the craftsmanship of master builders. The article also considers the significance of Sitorai Mokhi-Khosa today as a museum and tourist destination. Through the displayed historical exhibits, important information is provided about the culture, handicrafts, and court life of the Bukhara Emirate period. Special attention is given to the palace's role in the cultural heritage of Uzbekistan and issues of its preservation.*

Keywords: *Amir Nasrullo, Amir Olim Khan, Muso Saidjonov, Abulfaiz Khan, Mangit dynasty, guest hall, museum, Iranian architecture, White Hall, exhibit.*

O'zbekiston qadimdan jahon tamadduni rivojiga munosib hissa qo'shgan hududlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida turli tarixiy davrlarda shakllangan davlatlar va madaniyatlar tomonidan bunyod etilgan me'moriy obidalar xalqimizning boy ma'naviy hamda moddiy merosini o'zida mujassam etgan. Bu yodgorliklar nafaqat o'tmish tarixining guvohi, balki xalqning dunyoqarashi, estetik didi, bunyodkorlik salohiyati va madaniy taraqqiyot darajasini aks ettiruvchi muhim manbalar hisoblanadi. Ayniqsa, saroy me'morchiligi namunalari davlat boshqaruvi, hukmdorlar turmush tarzi va davr madaniy muhitini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan Buxoro ko'p asrlar davomida siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va madaniy markaz sifatida mashhur bo'lib kelgan. Bu shahar Buyuk ipak yo'lining muhim nuqtalaridan biri sifatida Sharq va G'arb xalqlari o'rtasidagi iqtisodiy hamda madaniy aloqalarning rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Buxoro hududida bunyod etilgan ko'plab tarixiy obidalar orasida masjidlar, madrasalar, maqbaralar, karvonsaroylar va saroylar alohida o'rin egallaydi. Ushbu me'moriy inshootlar o'z davrining siyosiy qudrati, iqtisodiy imkoniyatlari va san'at taraqqiyotini yaqqol namoyon etadi.



XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida me'morchilik va amaliy san'atning yangi bosqichi kuzatildi. Bu davrda an'anaviy sharqona



me'morchilik uslublari bilan bir qatorda Yevropa san'ati va me'morchiligining ayrim unsurlari ham kirib kela boshladi. Natijada o'zida mahalliy va xorijiy me'moriy an'analarni mujassamlashtirgan noyob inshootlar bunyod etildi. Ana shunday tarixiy yodgorliklardan biri Sitorai Mohi Xosa saroyidir.

Sitorai Mohi Xosa Buxoro amirlarining yozgi qarorgohi sifatida bunyod etilgan bo'lib, u Buxoro shahri yaqinida joylashgan. Saroyning nomi fors-tojik tilidan tarjima qilinganda “Oy va yulduzlar maskani” ma'nosini anglatadi[1]. Bu nomning o'ziyoq saroyning naqadar go'zal va hashamatli inshoot bo'lganini ko'rsatadi. Saroy dastlab Amir Nasrullaxon davrida qurila boshlangan bo'lsa-da, uning asosiy qismi keyinchalik Amir Abdulahadxon va Amir Olimxon hukmronligi davrida barpo etilgan. Aynan shu davrda saroy kengaytirilib, yangi binolar va bog'lar bilan boyitilgan.

Sitorai Mohi Xosa o'zining me'moriy yechimi bilan boshqa saroylardan ajralib turadi. Uning qurilishida Buxoro xalq me'morchiligi an'analari bilan bir qatorda rus va Yevropa me'morchilik uslublarning ayrim jihatlari ham qo'llanilgan. Saroyning tashqi va ichki bezaklarida ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, oynakorlik va boshqa amaliy san'at turlarining eng yaxshi namunalari mujassamlangan. Ayniqsa, saroydagi Oq zal, qabulxona va boshqa xonalar bezagida mahalliy ustalarning yuksak mahorati yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur saroy nafaqat amirlarning dam olish maskani, balki muhim davlat tadbirlari, rasmiy uchrashuvlar va marosimlar o'tkaziladigan maskan sifatida ham xizmat qilgan. Shu sababli Sitorai Mohi Xosa Buxoro amirligi siyosiy hayoti bilan ham chambarchas bog'liqdir. Saroyning me'moriy qiyofasi va bezaklari orqali o'sha davr hukmdorlarining didi, dunyoqarashi hamda davlatning iqtisodiy imkoniyatlari haqida muhim tasavvurlarga ega bo'lish mumkin.

Bugungi kunda Sitorai Mohi Xosa O'zbekistonning muhim tarixiy-madaniy meros obyektlaridan biri hisoblanadi. Saroy muzey sifatida faoliyat yuritib, mahalliy va xorijiy sayyohlarni o'ziga jalb etmoqda. Unda



saqlanayotgan tarixiy buyumlar, amaliy san'at namunalari va me'moriy bezaklar Buxoro amirligi davri madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Mustaqillik yillarida saroyni asrab-avaylash, ta'mirlash va keng targ'ib qilish borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Sitorai Mohi Xosaning tarixiy va me'moriy ahamiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etish, uning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish hamda madaniy meros sifatidagi o'rnini aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki tarixiy obidalarni chuqur o'rganish va ularni kelajak avlodlarga yetkazish milliy merosni asrashning muhim shartlaridan biridir.

Tadqiqotchi Muso Saidjonovning ma'lumotlariga ko'ra, Sitorai Mohi Xosa nomining kelib chiqishi va saroy joylashgan hududning tarixi haqida keng tarqalgan qarashlardan farq qiluvchi ma'lumotlar mavjud. Olimning

vaqf hujjatlariga asoslangan tadqiqotlarida qayd etilishicha, ashtarxoniy hukmdor Abulfayzxonning onasi, “Bibi podshoh” nomi bilan tanilgan Sitorai Mohi Xosa tomonidan hozirgi saroy joylashgan hududda bog' barpo etilgan. Keyinchalik mazkur bog' uzoq vaqt davomida qarovsiz qolib, xaroba holga kelgan. XIX asr



oxirida Amir Abdulahadxon davrida bog' qayta obod etilib, uning tarixiy nomi tiklangan. Natijada ushbu hudud “Sitorai Mohi Xosa” nomi bilan mashhur bo'lib, keyinchalik Buxoro amirlarining yozgi qarorgohi sifatida bunyod etilgan saroy ham shu nom bilan atalgan. Muso Saidjonovning mazkur ma'lumotlari Sitorai Mohi Xosa saroyi nomining kelib chiqishi va uning tarixiga oid ayrim rivoyatlarga aniqlik kiritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi[2].

Sitorai Mohi Xosa hududi bilan bog'liq yana bir rivoyatga ko'ra, XIX asr o'rtalarida Buxoro amiri Nasrulloxon yozgi qarorgoh qurish uchun eng qulay joyni tanlashga buyruq bergan. Rivoyatlarda aytilishicha, qurilish uchun salqin hududni aniqlash maqsadida bir necha joylarga qovurilgan qo'y go'shti qo'yilgan va go'sht eng kech buzilgan hudud saroy qurilishi uchun tanlangan. Shu tariqa Buxoro shahri tashqarisidagi mazkur maskan amirlarning dam olish qarorgohi sifatida shakllana boshlagan. Keyinchalik bu



hududda yangi saroy majmuasi barpo etildi. XX asr boshlarida Amir Olimxon davrida saroy yanada kengaytirilib, yangi binolar bilan boyitildi. Qurilish ishlariga mahalliy ustalar bilan bir qatorda Rossiyada ta'lim olgan me'morlar ham jalb qilindi. Natijada saroy me'morchiligida sharqona an'analar va Yevropa me'morchilik unsurlari uyg'unlashib, o'ziga xos me'moriy qiyofa vujudga keldi[3]. Aynan shu davrda bunyod etilgan yangi saroy bugungi kungacha saqlanib qolgan Sitorai Mohi Xosa majmuasining asosiy qismini tashkil etadi.

Saroyning nomi bilan bog'liq turli rivoyatlar mavjud bo'lsa-da, ularning barchasi mazkur maskanning go'zalligi va nafisligi bilan bog'lanadi. “Sitorai Mohi Xosa” nomi odatda “Oy va yulduzlar maskani” yoki “Oydek go'zal yulduz” ma'nolarida talqin qilinadi. Bu nom saroyning me'moriy salobati va betakror husnini ifodalovchi ramziy atama sifatida xalq orasida keng tarqalgan.

Sitorai Mohi Xosa mang'itlar sulolasining eng mashhur saroy majmualaridan biri hisoblanadi. Saroyning dastlabki inshootlari Amir Nasrullo hukmronligi davrida bunyod etilgan bo'lsa-da, bu yerda yirik saroy va bog' majmuasini shakllantirish ishlari Amir Abdulahadxon davrida boshlangan. Keyinchalik Amir Olimxon hukmronligi yillarida saroy yanada kengaytirilib, yangi binolar qurilgan. Natijada majmua eski va yangi saroy qismlariga bo'lingan. Eski saroy bir necha hovli va turli vazifalarni bajargan xonalardan tashkil topgan. Uning eng qadimiy qismlaridan biri Amir Muzaffarxon davriga mansub mehmonxona hisoblanadi. Ushbu bino keng va baland zali, ikki tomonidagi ayvonlari hamda Yevropa me'morchiligi ta'sirida ishlangan eshik va derazalari bilan ajralib turadi. Mehmonxona ichki bezaklarida turli naqsh va ranglarning uyg'unligi ko'zga tashlanadi.

Majmuaning yana bir muhim qismi Abdulahadxon zali bo'lib, u o'ziga xos me'moriy yechim asosida bunyod etilgan. Zal markaziy qism va unga tutash ikki simmetrik bo'limdan iborat bo'lib, ichki bezaklarida sharqona naqqoshlik va ganchkorlik an'analari namoyon bo'ladi. Muzaffarxon va Abdulahadxon zallarining bezaklarida o'xshash jihatlar mavjud bo'lib, ular saroy me'morchiligining uzviy rivojlanishini aks ettiradi.

Eski saroyning sharqiy qismida Amir Olimxon davrida bunyod etilgan yangi saroy joylashgan. Ushbu qism majmuaning eng muhtasham inshootlaridan biri sanaladi. Saroyga koshinkorlik va rangli oynalar bilan bezatilgan ulkan peshtoq orqali kiriladi. Yangi saroy qurilishidan oldin Buxoroning mohir ustalari Rossiyaga yuborilib, u yerdagi me'morchilik



tajribalarini o'rganishgan. Shundan so'ng Xo'ja Hofiz boshchiligidagi mahalliy ustalar rus muhandislari nazorati ostida yangi saroy binolarini qurishga kirishganlar. Saroyni barpo etishda Buxoro xalq me'morchiligi an'analari, Yevropa uslublari hamda Eron me'morchiligining ayrim jihatlari uyg'unlashtirilgan[4]. Natijada o'z davri uchun noyob hisoblangan me'moriy majmua vujudga kelgan. Saroyning kirish qismida marmardan ishlangan sher haykallari o'rnatilgan bo'lib, ular majmuaning badiiy qiyofasini yanada boyitgan.

Yangi saroy tarkibidagi eng noyob inshootlardan biri Oq zal hisoblanadi. U 1912–1914-yillarda bunyod etilgan bo'lib, Buxoro ganchkorlik san'atining yuksak namunasi sifatida e'tirof etiladi. Mashhur usta Shirin Murodov rahbarligida ko'plab ustalar tomonidan yaratilgan bu zalning devor va shiftlari nafis ganch o'ymakorligi hamda oynavand bezaklar bilan ziynatlangan. Oq zalning ichki ko'rinishi Buxoro amaliy san'ati taraqqiyotining eng yuqori bosqichlaridan birini namoyish etadi. Yangi saroy umumiy rejasiga ko'ra P shaklida qurilgan bo'lib, uning bezaklari va ichki jihozlarida sharqona hamda yevropacha uslublar uyg'unlashgan. Majmua tarkibida zinali hovuz, ayvonlar, dam olish maskanlari va bog' hududlari ham mavjud bo'lgan. Ayniqsa, saroy oldidagi hovuz me'moriy ansamblning muhim qismi sifatida uning badiiy jozibasini oshirgan. Saroy majmuasi tarkibiga tashqi hovli, xazinaxona, bog' va yozgi dam olish uchun mo'ljallangan binolar ham kirgan. Ushbu inshootlar o'zaro uyg'un holda joylashtirilgan bo'lib, Sitorai Mohi Xosaning nafaqat hukmdor qarorgohi, balki yuksak me'moriy va bog'-saroy san'ati namunasi sifatidagi ahamiyatini ham belgilab beradi.

Sitorai Mohi Xosa saroyi 1927-yilda muzey sifatida faoliyat yurita boshladi. Dastlab muzey tarkibida “So'nggi amirlar hayoti”, “Shahar hunarmandchiligi” va “Buxoro inqilobi tarixi” bo'limlari tashkil etilgan edi. Muzeyni tashkil etish va uning dastlabki faoliyatini yo'lga qo'yishda taniqli ma'rifatparvar va muzeyshunos Muso Saidjonov muhim o'rin tutgan. U Buxoro tarixiy-madaniy merosini asrash va muzey fondlarini boyitishga katta hissa qo'shgan. 1933-yilda Sitorai Mohi Xosa Buxoro muzeyining filialiga aylantirildi hamda unga tumanlararo o'lkashunoslik muzeyi maqomi berildi. Shu davrda muzey ekspozitsiyasi qayta ko'rib chiqilib, yangi eksponatlar bilan boyitildi. Natijada muzeyning ilmiy va madaniy ahamiyati yanada ortdi.

1948-yildan boshlab muzey faoliyatida yangi bosqich boshlandi. Ko'rgazma “Buxoro xalq san'ati va madaniyati” nomi ostida tashkil etilib,



unda Buxoro monumental san'ati, amaliy bezak san'ati, xalq musiqasi va og'zaki ijodi, xattotlik hamda miniatyura san'ati, shuningdek, Buxoroning boshqa mamlakatlar bilan madaniy aloqalariga oid materiallar namoyish etildi[5]. Bu esa muzeyning ilmiy-ma'rifiy ahamiyatini yanada kuchaytirdi. 1954-yilda saroy majmuasining bir qismi dam olish maskani sifatida foydalanishga topshirildi. Shu sababli muzey ekspozitsiyasi qisqartirilib, asosiy ko'rgazmalar saroyning bir necha zallarida saqlab qolindi. Keyinchalik muzey “Xalq san'ati muzeyi” nomi bilan faoliyat yuritib, Buxoro vohasining boy madaniy merosini targ'ib etishda muhim markazlardan biriga aylandi.

Bugungi kunda Sitorai Mohi Xosa muzeyi O'zbekistonning eng mashhur tarixiy-madaniy maskanlaridan biri hisoblanadi. Muzey fondlarida amaliy san'at namunalari, saroy buyumlari, milliy liboslar, zargarlik mahsulotlari va boshqa qimmatli eksponatlar saqlanmoqda. Ushbu boy meros Buxoro amirligi davridagi saroy madaniyati va xalq hunarmandchiligi an'analari o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Sitorai Mohi-Xosa saroyi bugungi kunda Buxoro viloyatining eng muhim turistik maskanlaridan biri hisoblanadi. U shahardan bir necha kilometr uzoqlikda joylashgan bo'lib, sayyohlar uchun ochiq tarixiy-madaniy majmua sifatida faoliyat yuritadi. Saroyga tashrif buyuruvchilar nafaqat me'moriy yodgorlikni ko'rish, balki Buxoro amirligi davrining muhitini his qilish imkoniga ham ega bo'ladilar. Turistik zona sifatida Sitorai Mohi-Xosa o'zining keng bog'lari, hovlilari va tarixiy binolari bilan ajralib turadip[6]. Majmua hududida sayyohlar uchun maxsus yo'laklar tashkil etilgan bo'lib, ular orqali saroyning eski va yangi qismlari bilan tanishish mumkin. Har bir bino va xona o'zining me'moriy bezaklari, naqshlari va ichki dizayni bilan tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldiradi. Saroy muzey ekspozitsiyalari ham turizm rivojida muhim o'rin tutadi. Bu yerda Buxoro amirligi davriga oid uy-ro'zg'or buyumlari, amaliy san'at namunalari, milliy liboslar, bezaklar hamda tarixiy hujjatlar namoyish etiladi. Ushbu eksponatlar orqali sayyohlar Buxoro xalqining turmush tarzi, madaniyati va san'ati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ladilar.

Shuningdek, Sitorai Mohi-Xosa saroyi turizm sohasida xalqaro sayyohlarni ham jalb etuvchi markazlardan biri hisoblanadi. Uning betakror me'morchiligi, sharqona va yevropacha uslublarning uyg'unlashuvi hamda tarixiy muhitning saqlanib qolganligi uni O'zbekistonning eng qimmatli turistik obyektlaridan biriga aylantiradi. Shu sababli saroy Buxoro viloyatining madaniy turizm salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Xulosa qilib aytganda, Sitorai Mohi-Xosa saroyi Buxoro amirligi davrining eng yirik va betakror me'moriy majmualaridan biri bo'lib, u o'zida tarixiy, madaniy va badiiy qadriyatlarni mujassam etadi. Saroyning shakllanish jarayoni bir necha bosqichlarda amalga oshirilgan bo'lib, unda turli davrlarning me'moriy an'analari, ustalar mahorati hamda siyosiy-madaniy muhit o'z aksini topgan. Ushbu majmua nafaqat amirlarning yozgi qarorgohi sifatida, balki Buxoro davlatining siyosiy va madaniy hayotida muhim markaz sifatida ham xizmat qilgan. Saroy binolarining bezaklari, me'moriy yechimlari va ichki tuzilishi o'z davrining yuksak san'at darajasini ko'rsatadi hamda Sharq va G'arb me'morchilik uslublarining uyg'unlashuvini namoyon etadi.

Bugungi kunda Sitorai Mohi-Xosa muzey va turistik maskan sifatida xalqimiz va xorijiy sayyohlar uchun katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu yerda saqlanayotgan tarixiy eksponatlar va me'moriy yodgorliklar orqali Buxoro amirligi davrining boy madaniy merosini chuqur o'rganish imkoniyati yaratilgan. Sitorai Mohi-Xosa saroyi O'zbekistonning bebaho tarixiy-madaniy meroslaridan biri bo'lib, uni asrab-avaylash va ilmiy jihatdan o'rganish kelajak avlod uchun muhim ahamiyatga ega. Bu majmua nafaqat o'tmishning yorqin yodgorligi, balki milliy madaniyat va san'at taraqqiyotining yorqin ramzi hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ф.Абдухолиқов, А.Раззоқов, К.Раҳимов, Э.Некрасова. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар. Бухоро. Биринчи қисм. Китоб-албом – Тошкент, “Ўзбекистан Тодай” ахборот агентлиги, – 2016, 552 б.
2. То'rayev Н. Бухоро тарихи. – Бухоро, “Durdona” nashriyoti, 2020. – 320 б.
3. https://www.advantour.com/uzbekistan/bukhara/sitorai_mohi_hosa.htm
4. Vaxitov M, Mirzayev Sh. Me'morchilik. – Toshkent, "Tafakkur" nashriyoti, 2010. – 366 б.
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Sitorai_Mokhi-Khosa
6. <https://meros.uz/en/object/sit%D0%B0i-m%D0%B0%D1%85%D0%B0-saroyi->

